



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	



HARBIY XIZMATCHILARNI KIIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: usmon25011992@gmail.com

ORCID: 0009-0008-6533-9108

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak bilan ta'minlashda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanish istiqbollari iqtisodiy-logistik yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy, Rossiya va Qozog'iston amaliyotlari markazlashgan xarid, individual hisob, servishga asoslangan kontraktlashuv, sifat ekspertizasi, mahalliy sanoat bilan integratsiya va differensial ta'minot me'yorlari nuqtayi nazaridan umumlashtirilgan. Maqolada xorijiy tajribani tayyor model sifatida ko'chirish emas, balki Milliy gvardiya tizimining xizmat xususiyatlari, iqlim sharoiti, budjet intizomi, ichki ishlab chiqarish imkoniyatlari va amaldagi me'yoriy-huquqiy bazasiga moslashtirish zarurligi asoslangan. Natijada kiyim-kechak ta'minotini real ehtiyoj, shaxsiy elektron hisob, hayotiylik sikli qiymati, mustaqil sifat nazorati va hisobdan chiqarilgan buyumlar harakatini boshqarish asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: harbiy kiyim-kechak ta'minoti, xorijiy tajriba, Milliy gvardiya, front orti ta'minoti, harbiy logistika, davlat xaridlari, ta'minot me'yorlari, hayotiylik sikli, sifat ekspertizasi, elektron hisob, moddiy javobgarlik, budjet samaradorligi.

Abstract. The article examines the prospects for applying the experience of advanced foreign countries in clothing and equipment supply for servicemen in Uzbekistan. The experience of the United States, the United Kingdom, Germany, the Republic of Korea, Türkiye, China, Russia and Kazakhstan is summarized in terms of centralized procurement, individual accounting, service-based contracting, quality expertise, integration with national industry and differentiated supply standards. The study substantiates that foreign experience should not be copied mechanically, but should be adapted to the service characteristics of the National Guard, climatic conditions, budget discipline, domestic production capacity and the existing regulatory framework. Scientific and practical proposals are developed to improve clothing supply through real service needs, electronic personal accounting, life-cycle value assessment, independent quality control and management of written-off items.

Keywords: clothing supply, foreign experience, National Guard, rear support, military logistics, public procurement, supply standards, life cycle, quality expertise, electronic accounting, material liability, budget efficiency.

Аннотация. В статье исследуются перспективы использования опыта передовых зарубежных государств в обеспечении военнослужащих вещевым имуществом в условиях Узбекистана. Опыт США, Великобритании, Германии, Республики Корея, Турции, Китая, России и Казахстана обобщен с точки зрения централизованных закупок, индивидуального учета, сервисного контрактования, экспертизы качества, интеграции с национальной промышленностью и дифференцированных норм обеспечения. Обоснована необходимость не механического переноса зарубежных моделей, а их адаптации к особенностям службы Национальной гвардии, климатическим условиям, бюджетной дисциплине, возможностям внутреннего производства и действующей нормативно-правовой базе. Разработаны научно-практические предложения по совершенствованию вещевого обеспечения на основе реальной потребности, электронной персональной карточки, стоимости жизненного цикла, независимого контроля качества и управления движением списанного имущества.

Ключевые слова: вещевое обеспечение, зарубежный опыт, Национальная гвардия, тыловое обеспечение, военная логистика, государственные закупки, нормы обеспечения, жизненный цикл, экспертиза качества, электронный учет, материальная ответственность, бюджетная эффективность.



KIRISH

Harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak, poyabzal, maxsus jihozlar va himoya vositalari bilan ta'minlash har qanday davlatning mudofaa va xavfsizlik tizimida front orti ta'minotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur ta'minot turi tashqi ko'rinish yoki xizmat intizomi bilan cheklanmaydi; u shaxsiy tarkibning xizmatga shayligi, sog'lig'i, ob-havo va hudud sharoitlariga moslashuvi, harakat erkinligi, xavfsizligi hamda belgilangan vazifalarni uzluksiz bajarish imkoniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun kiyim-kechak ta'minotini oddiy ombor-tarqatish amaliyoti sifatida emas, balki iqtisodiy, logistika, huquqiy, texnologik va ijtimoiy omillar uyg'unlashgan boshqaruv tizimi sifatida tahlil qilish zarur.

Jahon miqyosida mudofaa xarajatlari ortib borayotgan sharoitda moddiy resurslardan oqilona foydalanish, xarid qilinayotgan buyumlarning real xizmat sharoitiga mosligini ta'minlash va ombor-logistika jarayonlaridagi samarasizliklarni kamaytirish davlat moliyasining dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Stokgolm xalqaro tinchlik tadqiqotlari institutining baholashicha, 2024-yilda jahon harbiy xarajatlari 2 718 mlrd AQSh dollariga yetib, 2023-yilga nisbatan real ifodada 9,4 foizga oshgan. Bu raqam front orti ta'minoti, jumladan, kiyim-kechak va poyabzal ta'minotining iqtisodiy yuklamasi global miqyosda ham yirik boshqaruv obyektiga aylanganini ko'rsatadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida kiyim-kechak ta'minotining dolzarbligi mazkur tuzilmaning xizmat xususiyati bilan belgilanadi. Milliy gvardiya bo'linmalari jamoat tartibini saqlash, muhim obyektlarni qo'riqlash, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlash, patrul-post xizmati, maxsus tadbirlar, favqulodda vaziyatlarda ko'maklashish va boshqa vazifalarni turli iqlim, hudud, vaqt va xavf darajalarida bajaradi. Bunday sharoitda bir xil normativ yondashuv barcha xizmat vazifalariga to'liq javob bermaydi; kiyim-kechak buyumlari xizmat turi, mavsum, hudud, intensivlik va xavfsizlik mezonlari bilan bog'langan holda baholanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonunida Milliy gvardiya jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida alohida vazifalarga ega tuzilma sifatida belgilangan. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlarining pul, oziq-ovqat va kiyim-kechak ta'minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mazkur ta'minotning davlat majburiyati va ijtimoiy kafolat sifatidagi mazmunini ko'rsatadi [2]. Shu bilan birga, Milliy gvardiya tizimida kiyim-kechak ta'minotini tashkil etish amaldagi ichki me'yoriy hujjatlar va ta'minot me'yorlari asosida tartibga solinadi. Ushbu me'yorlar kiyim-kechak buyumlarini berish tartibi, muddatlari, toifalari va ulardan foydalanish shartlarini amaliy jihatdan belgilab beradi [2].

Kiyim-kechak ta'minotini takomillashtirish masalasi O'zbekistonda faqat yangi forma namunalarini joriy etish bilan cheklanmasligi lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy mo'ynali telpak o'rniga balaklava turidagi shapka-sharfni qo'llash orqali yiliga o'rtacha 202,0 mln so'm, baland qo'njli issiq botinkalarning foydalanish muddatini 1 yildan 2 yilgacha uzaytirish orqali 807,8 mln so'm, yangi kalta polo ko'ylakni ta'minot me'yoridan chiqarish orqali 1,38 mlrd so'm mablag' tejallishi mumkinligi iqtisodiy jihatdan asoslangan [3]. Biroq bunday tejamkorlik kiyim-kechak sifatini pasaytirish hisobiga emas, balki real ehtiyojni aniqlash, normativlarni amaliy xizmat sharoitlariga moslashtirish, foydalanish muddatini ilmiy asoslash va xarid qarorlarini hayotiylik sikli bo'yicha baholash orqali shakllanishi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Harbiy logistika va ta'minot zanjiri bo'yicha ilmiy adabiyotlarda kiyim-kechak ta'minoti alohida texnik masala sifatida emas, balki harbiy xizmatchining xizmatga shayligi, resurslardan samarali foydalanish va ta'minot uzluksizligini ta'minlovchi muhim boshqaruv yo'nalishi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, M. Kress harbiy logistikaning asosiy vazifasi kuch va vositalarni zarur joyga, zarur vaqtda va zarur hajmda yetkazishdan iborat ekanini ta'kidlaydi. M. Christopher hamda D. Simchi-Levi, P. Kaminsky va E. Simchi-Levi tadqiqotlarida esa ta'minot zanjirida xarid, zaxira, yetkazib berish, sifat, servis va xarajatlar o'zaro bog'liq holda boshqarilishi kerakligi asoslanadi. Ushbu yondashuvlar harbiy kiyim-kechak ta'minotida faqat xarid narxiga emas, balki buyumning butun foydalanish davridagi qiymati, xizmatga mosligi va logistika samaradorligiga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy amaliy manbalarda ham kiyim-kechak ta'minotining raqamli hisob, markazlashgan xarid, sifat nazorati va servis modeli bilan bog'liq jihatlari ustuvor o'rin tutadi. Defense Logistics Agency ma'lumotlari AQShda kiyim-kechak va to'qimachilik buyumlari yirik nomenklatura asosida markazlashtirilgan tarzda boshqarilishini ko'rsatsa, NATO hujjatlarida logistika harbiy operatsiyalar barqarorligini ta'minlovchi asosiy tizim sifatida izohlanadi. Buyuk Britaniya mudofaa ta'minoti amaliyotida shartnoma sifati va yetkazib berish barqarorligiga, Germaniya tajribasida kiyim-kechakni hayotiylik sikli bo'yicha boshqarishga, Janubiy Koreya amaliyotida esa mustaqil sifat-texnologik ekspertizaga alohida e'tibor beriladi. Mazkur manbalar O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribani tayyor shaklda ko'chirishdan ko'ra, uning iqtisodiy-logistik mexanizmlarini milliy xizmat sharoitiga moslashtirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot qiyosiy-iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, institutsional tahlil, funksional-qiymat baholash va normativ-huquqiy tahlil metodlariga tayangan holda olib borildi. Qiyosiy tahlilda xorijiy davlatlar tajribasi tashqi forma namunasi darajasida emas, balki ta'minotning iqtisodiy modeli, logistika mexanizmi, hisob yuritish shakli, sifat nazorati va budjet samaradorligi nuqtayi nazaridan o'rganildi.

Maqolada xorijiy tajribani baholash uchun besh mezon tanlandi: birinchidan, ta'minotning markazlashganlik darajasi; ikkinchidan, shaxsiy tarkib va buyumlar harakatining raqamli hisobga olinishi; uchinchidan, xarid qarorlarida sifat, narx va foydalanish muddatining bog'lanishi; to'rtinchidan, buyumlarning xizmat sharoitiga differensial moslashtirilishi; beshinchidan, hisobdan chiqarilgan yoki ta'mirlashga qaytarilgan buyumlar bo'yicha qaytish oqimlarining boshqarilishi. Ushbu mezonlar Milliy gvardiya tizimida mavjud me'yoriy va amaliy ta'minot jarayonlari bilan solishtirildi.

Tadqiqotda iqtisodiy baholashning asosiy mazmuni xarid narxini alohida emas, balki buyumning foydali xizmat muddati, logistika xarajatlari, saqlash xarajatlari, ta'mirlash imkoniyati, qoldiq qiymati va xizmat xavfsizligiga ta'siri bilan birgalikda ko'rishdan iborat bo'ldi. Bu yondashuv kiyim-kechak ta'minotida "eng arzon xarid" mezonidan "eng barqaror va funksional ta'minot" mezoniga o'tish zaruratini asoslaydi.

Maqolada qo'llangan iqtisodiy apparat sun'iy va murakkab belgilar yig'indisiga emas, amaliy qaror qabul qilishga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlarga tayanadi. Jumladan, kiyim-kechak buyumining bir yilga keltirilgan xarajatini aniqlashda quyidagi ifodadan foydalanish maqsadga muvofiq:

$$HTX = (XN + LX + SX + TX - QQ) / FM$$

Bu yerda HTX — buyumning bir yilga keltirilgan hayotiylik tannarxi; XN — xarid narxi; LX — logistika xarajati; SX — saqlash xarajati; TX — ta'mirlash yoki qayta tiklash xarajati; QQ — qoldiq qiymat; FM — foydali xizmat muddati. Ushbu ko'rsatkich bir martalik xarid narxidan tashqari, buyumning butun foydalanish davridagi iqtisodiy yuklamasini ko'rsatadi.

Xorijiy tajribadan O'zbekiston sharoitida foydalanish darajasini baholashda esa moslashuvchanlik koeffitsiyenti quyidagi tarkibiy mezonlar asosida aniqlanishi mumkin:

$$MK = 0,25R + 0,20D + 0,20S + 0,15M + 0,10H + 0,10B$$

Bu yerda MK — xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish koeffitsiyenti; R — raqamli hisobga tayyorlik; D — differensial ta'minot me'yorlariga moslik; S — sifat va xavfsizlik ekspertizasini tashkil etish imkoniyati; M — mahalliy sanoat salohiyati; H — huquqiy-me'yoriy moslik; B — budjet barqarorligi. Ko'rsatkich 0 dan 1 gacha baholanadi; 0,75 dan yuqori qiymat tajriba elementini qisqa muddatda joriy etish mumkinligini, 0,50–0,75 oraliq qiymat bosqichma-bosqich moslashtirish zarurligini, 0,50 dan past qiymat esa avval institutsional va huquqiy tayyorgarlik talab etilishini anglatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy davlatlar tajribasi harbiy kiyim-kechak ta'minoti bir xil model asosida shakllanmasligini ko'rsatadi. Har bir davlatning tajribasi uning harbiy vazifalari, mudofaa xarajatlari, sanoat bazasi, iqlimi, logistika infratuzilmasi va huquqiy tizimi bilan bog'liq. Shunga qaramay, rivojlangan davlatlar tajribasida umumiy tendensiya yaqqol namoyon bo'ladi: kiyim-kechak ta'minoti buyumni bir marta berish amaliyotidan chiqib, resursni butun xizmat davri davomida boshqarish modeliga o'tmoqda.

AQSh tajribasi eng avvalo markazlashgan xarid va individual hisobga tayanadi. Defense Logistics Agency tizimida kiyim-kechak va to'qimachilik buyumlari yirik nomenklatura asosida xarid qilinadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mazkur ta'minot zanjiri 8 mingdan ortiq buyumni qamrab oladi, 2024-moliya yilida ushbu yo'nalish bo'yicha majburiyatlar hajmi 1,878 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan [4]. Bu harbiy kiyim-kechak ta'minoti oddiy ombor xarajati emas, balki yirik iqtisodiy-logistik boshqaruv obyekti ekanini ko'rsatadi.

AQSh modelining amaliy qiymati shundaki, kiyim-kechak berish jarayoni shaxsiy tarkib bilan bevosita bog'langan hisob tizimi orqali yuritiladi. AQShdagi Recruit Training Centerlar (boshlang'ich tayyorgarlik markazlari)da buyum berish point-of-sale (berish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi) asosida qayd etilishi, RFID (radiochastotali identifikatsiya) texnologiyasidan foydalanilishi va inventar ko'rinishi oshirilishi noto'g'ri o'lcham, ortiqcha zaxira va qayta tarqatish xarajatlarini kamaytiradi. Bunday tajriba O'zbekiston uchun har bir harbiy xizmatchi kesimida elektron kiyim-kechak kartasini joriy etish zaruratini asoslaydi.

AQSh tajribasining yana bir jihati qatlamli va modul kiyim tizimidir. Sovuq iqlim, namlik, shamol, cho'l va dala sharoitida bir xil kiyim to'plami bilan cheklanib qolish har doim ham samarali bo'lmaydi. Qatlamli kiyim konsepsiyasi buyumlarni xizmat sharoitiga qarab kombinatsiyalash imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida bu tajriba tog'li hududlar, cho'l zonalar, shahar muhitidagi patrul xizmati va dala mashg'ulotlari uchun alohida kiyim paketlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.



Buyuk Britaniya tajribasi servisga asoslangan kontraktlashuv va “best value” (eng maqbul qiymat) yondashuvi bilan ajralib turadi. Bu yondashuvda shartnoma faqat eng past narxga asoslanmaydi; buyumning sifati, xizmat muddati, yetkazib berish barqarorligi, qayta ta'minlash imkoniyati, ekologik va logistika talablari ham hisobga olinadi. Harbiy kiyim-kechakning alohida guruhlar bo'yicha framework (ramkaviy) shartnomalari tuzilishi xarid jarayonini umumiy, mavhum xariddan maqsadli va nazorat qilinadigan xizmatga aylantiradi.

Germaniya tajribasida kiyim-kechak ta'minoti hayotiylik sikli bo'yicha to'liq servis modeli sifatida qaraladi. Bunda buyum xarid qilinadi, saqlanadi, tarqatiladi, tozalanadi, ta'mirlanadi, qayta beriladi, hisobdan chiqariladi va qayta ishlash yoki utilizatsiya zanjiriga kiritiladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston uchun ayniqsa muhim, chunki amaliyotda buyumning xarid narxi ko'pincha asosiy mezon sifatida qaraladi, holbuki uning uzoq muddatli iqtisodiy samarasi foydalanish muddati, ta'mirlashga yaroqliligi, qoldiq qiymati va ekspluatatsiya sharoitlariga bog'liq.

Janubiy Koreya tajribasi mudofaa mahsulotlari bo'yicha mustaqil sifat va texnologik ekspertizani alohida tizimga aylantirish bilan e'tiborlidir. Kiyim-kechak buyumining sifati faqat tashqi ko'rinish yoki tikuv darajasi bilan emas, balki mato tarkibi, rang barqarorligi, yuvishga chidamlilik, nafas oluvchanlik, ergonomika, gigiyenik xususiyat, xavfsizlik va xizmat sharoitiga moslik orqali baholanishi kerak. Bu tajriba Milliy gvardiya tizimida qabul qilish komissiyalari faoliyatini sifat-rang-ergonomika ekspertizasi bilan boyitishni talab qiladi.

Turkiya tajribasi harbiy kiyim-kechak ta'minotini milliy sanoat bilan bog'lash orqali sanoat buyurtmasiga aylantirish imkonini ko'rsatadi. Harbiy ehtiyojlarni mahalliy to'qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal va maxsus mato ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiya qilish importga bog'liqlikni kamaytiradi, narx barqarorligini oshiradi va ta'minot uzluksizligini kuchaytiradi. O'zbekistonning yengil sanoat salohiyati hisobga olinsa, ushbu tajriba eng amaliy yo'nalishlardan biridir.

Xitoy tajribasi aniq ta'minot, individual moslashtirish va “so'nggi kilometr” logistikasi bilan tavsiflanadi. Buyumning bo'linmagacha yetib borishi, o'lcham va ehtiyojga mos berilishi, zaxira ortiqchaligini kamaytirishi ta'minot samaradorligini oshiradi. Bu yondashuv Milliy gvardiya tizimida markaziy ombor, hududiy boshqarma va harbiy qism o'rtasidagi axborot almashinuvini real vaqt rejimiga o'tkazish zarurligini ko'rsatadi.

Rossiya va Qozog'iston tajribasi O'zbekiston uchun huquqiy va institutsional yaqinligi bilan muhim. Ushbu mamlakatlarda ta'minot me'yorlari xizmat turi, harbiy maqom, iqlim hududi va buyum toifalari bo'yicha farqlanadi. Bu tajriba kiyim-kechak me'yorlari “muzlatilgan jadval” sifatida emas, balki ekspluatatsiya natijalari, narx o'zgarishi, xizmat vazifasi va shaxsiy tarkib ehtiyojlari asosida yangilanadigan iqtisodiy-huquqiy instrument bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.

1-jadval.
Xorijiy davlatlar tajribasining O'zbekiston uchun amaliy qiymati¹

Davlat	Ustuvor model	Iqtisodiy mazmun	O'zbekiston uchun foydalanish yo'nalishi	Kutiladigan natija
AQSh	Markazlashgan xarid va raqamli hisob	Buyum berish, inventar va zaxira harakati elektron kuzatiladi	Shaxsiy elektron kiyim-kechak kartasi va RFIDga yaqin hisob	Ortiqcha zaxira va noto'g'ri berish kamayadi
Buyuk Britaniya	Servis kontrakti va qiymatga asoslangan xarid	Narx, sifat, muddat va javobgarlik bir shartnomada bog'lanadi	Buyum guruhlar bo'yicha alohida shartnoma va indikatorlar	Xarid sifati va shartnoma intizomi oshadi
Germaniya	Hayotiylik sikli boshqaruvi	Xarid, saqlash, ta'mirlash, qayta berish va hisobdan chiqarish yagona siklda yuritiladi	Ombor-servis va qaytish oqimlarini boshqarish	Foydalanish muddati va qoldiq qiymat aniq baholanadi
Janubiy Koreya	Mustaqil sifat-texnologik ekspertiza	Material, rang, ergonomika va chidamlilik sinovdan o'tkaziladi	Qabul qilishda sifat-rang-ergonomika ekspertizasi	Sifatsiz buyumlar va takroriy xarid kamayadi
Turkiya	Milliy sanoat bilan integratsiya	Mudofaa ehtiyoji ichki ishlab chiqarish zanjiri bilan bog'lanadi	Mahalliy tikuv, to'qimachilik va poyabzal korxonalari bilan raqobatli hamkorlik	Importga qaramlik va xarid xavfi kamayadi
Xitoy	Aniq ta'minot va so'nggi kilometr logistikasi	Buyum shaxsiy o'lcham va bo'linma ehtiyojiga mos yetkaziladi	Markaziy-hududiy-harbiy qism axborot zanjiri	Yetkazib berish tezligi va aniqligi oshadi
Rossiya, Qozog'iston	Normativ-differensial tartibot	Me'yorlar xizmat turi, maqom va iqlim hududiga qarab farqlanadi	Milliy sharoitga mos differensial ta'minot me'yorlari	Resurs real ehtiyojga yaqinlashadi

¹ Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari va adabiyotlar tahlili asosida tuzilgan.



Xorijiy tajribadan foydalanishda eng muhim metodologik talab — tayyor shaklni emas, boshqaruv mexanizmini o'zlashtirishdir. Masalan, AQShdagi RFID tizimi yoki Germaniyadagi to'liq servis modeli O'zbekiston sharoitiga aynan o'sha ko'rinishda ko'chirilishi shart emas. Biroq ushbu tajribalarning ichki mohiyati — real vaqt rejimidagi hisob, buyum harakatini kuzatish, servis va qoldiq qiymatni boshqarish — Milliy gvardiya tizimida bosqichma-bosqich joriy etilishi mumkin.

Birinchi istiqbolli yo'nalish shaxsiy elektron kiyim-kechak kartasini joriy etishdir. Amaldagi shaxsiy kartochkalar, ombor hujjatlari va ta'minot ro'yxatlari ko'pincha alohida yuritiladi. Natijada harbiy xizmatchiga qaysi buyum qachon berilgani, uning foydalanish muddati qachon tugashi, qaysi buyum ta'mirga yaroqli yoki qaysi biri hisobdan chiqarilishi kerakligi real vaqt rejimida ko'rinmaydi. Elektron karta bu muammoni bartaraf etib, buyum harakatini shaxsiy tarkib bilan bog'laydi.

Ikkinchi istiqbolli yo'nalish differensial ta'minot me'yorlarini ishlab chiqishdir. Milliy gvardiya xizmati bir xil sharoitda bajarilmaydi: post-patrul xizmati, ommaviy tadbirlar, maxsus xizmat tadbirlari, dala mashg'ulotlari, vakillik tadbirlari va doimiy ma'muriy xizmat turli kiyim va jihozlar to'plamini talab qiladi. Shu bois barcha bo'linmalar uchun bir xil to'plamni qat'iy saqlash o'rniga, asosiy me'yor ustiga xizmat sharoitiga mos qo'shimcha paketlarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchi istiqbolli yo'nalish xarid qarorlarini hayotiylik sikli qiymati asosida baholashdir. Arzon narxda xarid qilingan, biroq tez yaroqsizlanadigan, rangini yo'qotadigan, yuvishga chidamsiz yoki xizmat sharoitiga mos bo'lmagan buyum yakuniy hisobda qimmatga tushadi. Shu sababli har bir yirik kiyim-kechak buyumi bo'yicha xarid narxi, saqlash, yetkazish, ta'mirlash, almashtirish, qoldiq qiymat va foydalanish muddati hisobga olinishi kerak.

To'rtinchi istiqbolli yo'nalish sifat va rang ekspertizasini kuchaytirishdan iborat. Milliy gvardiya faoliyatida forma nafaqat himoya vositasi, balki jamoat joyida tezkor tanib olish, xizmat intizomi, fuqarolar bilan muloqot va xavfsizlik belgisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli rang tanlash, material zichligi, yuvishga chidamlilik, havo o'tkazuvchanlik, ergonomika va tibbiy-taktik xavfsizlik birgalikda baholanishi lozim.

Beshinchi istiqbolli yo'nalish mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatli, sifatga asoslangan hamkorlikni rivojlantirishdir. O'zbekistonning to'qimachilik va tikuvchilik salohiyati kiyim-kechak ta'minotining muhim ichki manbai bo'lishi mumkin. Biroq mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash sifatdan voz kechish degani emas. Aksincha, texnik topshiriq, tajriba partiyasi, laboratoriya sinovi, ekspluatatsion sinov va kafolat majburiyatlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ham majburiy bo'lishi kerak.

Oltinchi istiqbolli yo'nalish hisobdan chiqarilgan, qaytarilgan yoki ta'mirga yaroqli buyumlar bo'yicha qaytish oqimlarini boshqarishdir. Kiyim-kechak ta'minotida buyumning hayoti tarqatish bilan tugamaydi. U foydalaniladi, eskiradi, ta'mirlanadi, qaytariladi, hisobdan chiqariladi yoki utilizatsiya qilinadi. Bu jarayonlar hujjatsiz va nazoratsiz qolsa, moddiy javobgarlik zaiflashadi, omborlarda keraksiz qoldiq ko'payadi va davlat mulkining tiklash qiymati yo'qoladi.

Yettinchi istiqbolli yo'nalish ta'minot me'yorlarini muntazam iqtisodiy auditdan o'tkazishdir. Me'yorni bir marta tasdiqlab, uzoq yillar davomida o'zgartirmaslik amaliyoti real xizmat ehtiyojidan uzilib qolishi mumkin. Ayrim buyumlar amaliyotda kam ishlatilishi, ayrimlari esa belgilangan muddatdan oldin eskirishi mumkin. Shu bois normativlar ekspluatatsiya statistikasi, budget yuklamasi, shaxsiy tarkib fikri, xizmat sharoiti va sifat ekspertisasi asosida yangilanib borishi kerak.

2-jadval.

O'zbekiston sharoitida joriy etish mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlar²

Yo'nalish	Asosiy mazmun	Joriy etish sharti	Natija
Elektron shaxsiy karta	Buyumning berilishi, muddati, ta'miri va qoldiq qiymatini shaxsiy tarkib bilan bog'lash	Ombor va kadrlar hisobini integratsiyalash	Aniq hisob va shaffof nazorat
Differensial me'yor	Xizmat turi va iqlimga qarab kiyim paketlari	Amaliy ekspluatatsiya ma'lumotlarini yig'ish	Ortiqcha va kam ta'minot kamayadi
Hayotiylik sikli bahosi	Xarid narxidan tashqari saqlash, ta'mir, qoldiq qiymatni hisoblash	Xarid hujjatlariga iqtisodiy mezon kiritish	Budget xarajati real samara bilan bog'lanadi
Sifat ekspertisasi	Material, rang, ergonomika, gigiyena va chidamlilikni baholash	Mustaqil sinov va qabul mezonlari	Sifatsiz buyumlar qabul qilinmaydi
Mahalliy sanoat	Raqobatli ishlab chiqarish va texnik topshiriq asosida buyurtma	Sertifikat, sinov va kafolat talabi	Ichki bozor salohiyati ishlaydi
Qaytish oqimlari	Ta'mir, qayta foydalanish, utilizatsiya va hisobdan chiqarishni boshqarish	Moddiy javobgarlik va ombor hisobi uyg'unligi	Yo'qotishlar va keraksiz qoldiq kamayadi

2 Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari va adabiyotlar tahlili asosida tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar asosida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida kiyim-kechak ta'minotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, har bir harbiy xizmatchi bo'yicha shaxsiy elektron kiyim-kechak kartasini joriy etish lozim. Ushbu karta buyumning berilgan sanasi, foydalanish muddati, o'lchami, ta'mirlanganligi, almashtirilganligi, qaytarilganligi va qoldiq qiymatini aks ettirishi kerak. Bu AQSh va Xitoy tajribasidagi individual hisobning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan shakli bo'ladi.

Ikkinchidan, kiyim-kechak ta'minoti me'yorlarini xizmat turi, iqlim hududi, mavsum, harakat intensivligi va xavfsizlik talablari darajasi bo'yicha differensiallashtirish zarur. Bunda asosiy me'yor saqlangan holda post-patrul, dala mashg'uloti, maxsus tadbir, vakillik xizmati va ekstremal iqlim uchun qo'shimcha paketlar ishlab chiqilishi mumkin.

Uchinchidan, xarid qarorlariga hayotiylik sikli tannarxi mezonini kiritilishi lozim. Har bir yirik buyum bo'yicha xarid narxi bilan birga saqlash, logistika, ta'mirlash, qoldiq qiymat, foydalanish muddati va xizmat xavfsizligiga ta'siri baholanishi kerak.

To'rtinchidan, kiyim-kechak buyumlarini qabul qilishda mustaqil sifat-rang-ergonomika ekspertizasi yo'lga qo'yilishi zarur. Ekspertiza faqat tashqi ko'rinishni emas, material tarkibi, rang barqarorligi, gigiyena, yuvishga chidamlilik, havoni o'tkazish, sovuq yoki issiqdan himoya va xizmat vazifasiga moslikni baholashi kerak.

Beshinchidan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatli va sifatga asoslangan shartnomaviy hamkorlik mexanizmi ishlab chiqilishi lozim. Mahalliy lashtirish darajasi, ishlab chiqarish quvvati, sifat sertifikatlari, tajriba partiyalari va kafolat majburiyatlari shartnoma baholash mezoniga kiritilishi kerak.

Oltinchidan, hisobdan chiqarilgan, qaytarilgan va ta'mirga yaroqli buyumlar bo'yicha qaytish oqimlari logistikasini boshqarish mexanizmini joriy etish kerak. Bu mexanizm buyumning tarqatilishidan keyingi harakatini ham boshqaradi va davlat mulkining tiklash qiymatini saqlashga xizmat qiladi.

Yettinchidan, kiyim-kechak ta'minoti bo'yicha yillik iqtisodiy audit o'tkazilishi lozim. Auditda xarid narxi, foydalanish muddati, ombor qoldig'i, sifat e'tirozlari, qayta berish holatlari, kamomad, hisobdan chiqarish va shaxsiy tarkib qoniqlash darajasi birgalikda tahlil qilinishi kerak.

Sakkizinchidan, Milliy gvardiya tizimida tajriba-sinov poligonini tashkil etish maqsadga muvofiq. Yangi kiyim-kechak buyumlari dastlab ma'lum bo'linmalarda, turli iqlim va xizmat sharoitida sinovdan o'tkazilib, shundan keyingina umumiy ta'minot me'yoriga kiritilishi kerak.

Harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak bilan ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi kiyim-kechak ta'minoti zamonaviy sharoitda oddiy xarid va tarqatish jarayoni emas, balki mudofaa iqtisodiyoti, harbiy logistika, davlat xaridlari, standartlashtirish, sifat ekspertizasi, mahalliy sanoat va moddiy javobgarlikni birlashtiruvchi kompleks boshqaruv tizimi ekanini ko'rsatadi.

AQSh tajribasi individual raqamli hisob va modul kiyim tizimining, Buyuk Britaniya tajribasi qiymatga asoslangan servis kontraktlarining, Germaniya tajribasi hayotiylik sikli bo'yicha to'liq servisning, Janubiy Koreya tajribasi mustaqil sifat-texnologik ekspertizaning, Turkiya tajribasi mahalliy sanoat bilan integratsiyaning, Xitoy tajribasi aniq ta'minot va "so'nggi kilometr" logistikasi samaradorligining, Rossiya va Qozog'iston tajribasi esa normativ-differensial tartibotning ahamiyatini asoslab beradi.

O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni tayyor model sifatida ko'chirish ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Ularning amaliy qiymati Milliy gvardiya tizimining xizmat xususiyati, jamoat xavfsizligi vazifalari, iqlim va hududiy farqlar, budjet intizomi, mahalliy ishlab chiqarish salohiyati va amaldagi me'yoriy-huquqiy bazaga moslashtirilgandagina namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijasida Milliy gvardiya tizimida kiyim-kechak ta'minotini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida shaxsiy elektron kiyim-kechak kartasini joriy etish, differensial ta'minot me'yorlarini ishlab chiqish, hayotiylik sikli tannarxi asosida xarid qilish, sifat-rang-ergonomika ekspertizasini kuchaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatli hamkorlikni rivojlantirish va hisobdan chiqarilgan buyumlar bo'yicha qaytish oqimlarini boshqarish belgilandi.

Umuman olganda, xorijiy tajribadan samarali foydalanish O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida kiyim-kechak ta'minotini real xizmat ehtiyojiga mos, iqtisodiy asoslangan, raqamli nazoratga tayangan, sifat jihatdan barqaror va budjet intizomini ta'minlovchi zamonaviy tizimga aylantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stockholm International Peace Research Institute. Trends in World Military Expenditure, 2024. SIPRI Fact Sheet. Stockholm: SIPRI, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 18-noyabr, O'RQ-647-son. <https://lex.uz/docs/-5128310>



3. Muallif hisob-kitoblari Milliy gvardiya kiyim-kechak ta'minoti me'yorlari va amaldagi xarid narxlari asosida.
4. Defense Logistics Agency. DLA Troop Support Clothing & Textiles: Small Business. Version 4/25/2025. Major Spend Pattern Fiscal Year 2024.
5. Defense Logistics Agency. DLA Troop Support Clothing and Textiles. Official website.
6. NATO. NATO's Role in Logistics. Official website.
7. NATO. Logistics Committee. Official website.
8. UK Government. Defence Supply Chain Strategy. GOV.UK.
9. UK Government. The Supply of Combat Garments. Find a Tender Service.
10. Bw Bekleidungsmanagement GmbH. Official website.
11. Defense Agency for Technology and Quality. Introduction. Official website.
12. Defense Agency for Technology and Quality. Mission. Official website.
13. Republic of Korea. Defense Acquisition Program Act. Korean Law Information Center.
14. Presidency of Defence Industries. About Us. Official website.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 2019-yil 12-sentyabr, PQ-4447-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4513434>
16. Kress M. Operational Logistics: The Art and Science of Sustaining Military Operations. 2nd ed. Cham: Springer, 2016.
17. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. 5th ed. Harlow: Pearson Education, 2016.
18. Simchi-Levi D., Kaminsky P., Simchi-Levi E. Designing and Managing the Supply Chain: Concepts, Strategies, and Case Studies. 3rd ed. New York: McGraw-Hill/Irwin, 2008.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>